

***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***  
**XALQARO AUDIT STANDARTLARINI O'ZBEKISTONDA**  
**QO'LLASH CHORA-TADBIRLARI**

***Kamoliddinova Mohiniso Bahodir qizi***  
*Bank-Moliya Akademiyasi magsitranti*

***Annotatsiya:*** Maqolada AXS ni O'zbekiston Respublikasida joriy qilish masalalari atroflicha yoritib berilgan. Audit mohiyati, maqsadi va vazifalari chuqurroq ochib berilgan. O'zbekiston Respublikasida auditorlik tashkilotlari va ularga qo'yilgan talablar, tahliliy yondashuvlar va mavzu bo'yicha yakuniy xulosa va takliflar hamda mamlakatimizda qo'llash bo'yicha ayrim tavsiyalar keltirib o'tilgan.

***Tayanch so'zlar.*** Xalqaro standartlar, tashqi audit, bank auditi, ichki audit, auditorlik tashkilotlari.

**MEASURES FOR THE APPLICATION OF INTERNATIONAL  
AUDIT STANDARDS IN UZBEKISTAN**

***Kamoliddinova Mohiniso Bahodir qizi***  
*Graduate Student of The Banking and Finance Academy*

***Abstract:*** In the article, the issues of introducing International Standards of Auditing in the Republic of Uzbekistan are covered in detail. The essence, purpose and tasks of the audit are revealed in more depth. Audit organizations in the Republic of Uzbekistan and their requirements, analytical approaches and final conclusions and proposals on the subject, as well as some recommendations for application in our country, are presented.

***Basic words.*** International standards, external audit, bank audit, internal audit, audit organizations.

## *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*

---

Banklarning moliyaviy faoliyati to'g'risidagi mabaalar ularning mustaqil o'z ishining ustalari tomonidan tekshiruvlar bo'yicha xulosalariga bog'liq bo'ladi. Bu xo'jalik boshqaruvida zamonaviy audit metodini qo'llash orqali amalga oshiriladi. O'zbekistonda yildan-yilga bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar yanada rivojlanib, takomillashib bormoqda.

Iqtisodiy o'zgarishlarni yuzaga keltiruvchi mahalliy bank sektorini takomillashtirish maqsadida oxirgi yillarda bir qator huquqiy-normativ hujjatlar qabul qilindi. Hozirgi kunda tijorat banklarida auditorlik xizmatini ko'rsatish bozorida raqobat juda kam rivojlangan. Amaliy auditning milliy bazasi asta-sekinlik bilan rivojlanmoqda. 19-sentyabr, 2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3946 "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>1</sup> gi qarori qabul qilindi.

Iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tilishi yurtimizda bank auditi xizmatini tashkil qilishini taqozo etadi. Chunki banklar o'rtasidagi raqobatda ta'sischi, hissadorlar, mijozlarni manfaatlariga ziyon yetmasligi kerak. Shu narsalarni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada bank audit tizimini rivojlantirish tadbirlari"<sup>2</sup> to'g'risidagi Farmoni qabul qilindi. Unda banklarni auditorlik tekshiruvlaridan o'tkazishni muvofiqlashtirish ishlari va amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga topshirildi.

Tijorat banklari asta-sekinlik bilan xalqaro moliya bozorlariga kirib borishda, ular uchun xalqaro pul bozorlari amaliyotida qo'llanilgan qoida va normalarga rioya qilishlari shart bo'ladi. Shuning uchun, tijorat banklari faoliyatini auditorlik tekshiruvlaridan o'tkazish uchun obro'-etiborga ega bo'lgan xalqaro audit firmalari, shuningdek, mahalliy auditorlik kompaniyalari xizmatidan foydalaniladi.

Jalb qilingan auditorlik firmalari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking bank auditini o'tkazish uchun sertifikatlar berish va auditorlik

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3946 "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.07.1996 yildagi PF-1500-son Farmoni.

malakasini atestastiyadan o'tkazish komissiyasini nizomi to'g'risidagi bayonnomada qo'yilgan talab va shartlarga rioya qilib, tijorat banklarini auditdan o'tkazish xuquqi uchun sertifikatga ega bo'lishlari kerak. Bank auditini o'tkazish xuquqi uchun auditorlik firmasi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligidan O'zbekiston Respublikasi xududida auditorlik faoliyati bilan shug'ullanishga listeziyaga ega bo'lishi kerak va O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lishi kerak.

Audit, xususan, kapitalning yetarliligini baholash, ssudalarni tasniflash, ssudalar bo'yicha zararlarni koplash, tavakkalchilikni va likvidlikni ulchashni uz ichiga oladi. Bu to'g'rida qonunda shunday deyilgan. "Banklar qonun hujjatlariga muvofiq ichki auditorlik dasturlarini ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari xam shart"<sup>3</sup>.

Yirik tarmoqlangan filiallarga ega bo'lgan tijorat banklarida Markaziy bank, Soliq inspeksiyasi, Xuquqiy organlar tomonidan tekshiruv o'tkazilganda chiqib qolishi mumkin bo'lgan nohush xabarlarini oldini olish uchun o'z faoliyatini oldindan ichki tekshiruvni tashkil qilishga talab paydo bo'ladi. Mana shu sabablarga asosan yuqorida keltirilgan masalalarni hal qilish uchun yirik tijorat banklarida ixtisoslashgan tekshiruv xizmatlarni tashkil qilish kerak. Bu vazifani nazorat-taftish va analitik funkstiyalarini amalga oshiruvchi va bankning struktura bo'limi bo'lib xisoblangan, bankning ichki audit xizmati bajaradi.

Bankning ichki auditini vazifalariga qo'yidagilar kiradi.

-bank ishining "Banklar va bank faoliyati" qonuni Markaziy bankni normativ hujjatlari tijorat banklarining dasturi akstionerlar majlisining qarori, bank boshqaruvi va boshqa bank normativlari bo'yicha nazorat qilish;

-kapitalni joylashtirish va tashkil qilish sifatlari, iqtisodiy maqsadlariga baho berish va bankning kcredit resurslarini mehnat va moddiy resurslaridan kepakli tarzda foydalanish, bank ishining kelajakdagi xizmatini kengaytirish;

-taftish o'tkazish bankning raqobatlashish qobiliyatini va moliyaviy turg'unligini aniqlash maqsadida tekshiruv o'tkazish uning balans likvidlik

---

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Banklar va bank faoliyati to'g'risida, 25.04.1996 yildagi 216-I-son Qonuni.


## *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*

darajasini, o'tkazilayotgan operatsiyalarning foydalilik darajasini aniqlash;

-bank aksiyadorlar mulkini saqlanishini ta'minlash bo'yicha nazorat o'tkazish ichki bank auditi vazifalariga kiradi.


Ichki bank auditidan tashqari tashqi bank auditi ham mavjud. Xozirgi vaqtda auditorlik xizmati yuksalish pog'onasida turibdi. Audit biz uchun yangi faoliyatdir. Bu davlat nazorati emas, balki boshqa organlarga o'xshab mustaqil, butunlay boshqa fikr va qiymatga ega bo'lgan faoliyatdir.

Turli mulkka ega bo'lgan tijorat tashkilotlarining ko'payishi bunga banklar va uning filiallari ham kiradi. Auditorlik tekshiruvlari majburiy va tashabbusiy tartibda tashkil qilinadigan turlarga bo'linadi. Qonun bo'yicha majburiy auditdan banklar va boshqa xo'jalik subektlari o'tadi. Tekshiruv o'tkazish va maslahatlar berishga auditorlik xizmatlari va mustaqil auditorlar jalb etiladi. Ularning faoliyatiga qo'yidagi vazifalar kiradi: xaqiqiy ish ahvoli bo'yicha bankning buxgalterlik hisobiga mos kelishini tekshirish, qonun talablarni tekshirish, banklar o'tkazayotgan moliyaviy siyosat samaraliligini tekshirish va ularning imkoniyatlariga baho berishdir. Tijorat banklarida tashqi auditni amalga oshirish uchun bank faoliyatini hamma tomonlarini qamrab olishi zarur. Bank faoliyatini tekshirishda va maslahatlar berishda, banklar tomonidan auditorlik firmalari va mustaqil auditorlar yo'llanadi. Auditorlik firmalarini va mustaqil auditorlarni jalb qilishda ularni malakasiga, obro'siga, insofililiga va boshqa xususiyatlariga



qaraladi.

**1-rasm. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan auditorlik tashkilotlari soni oxirgi 5 yillikda.<sup>4</sup>**



**2-rasm. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan auditorlar soni oxirgi 5 yillikda<sup>5</sup>**

Tijorat banklari faoliyatini audit qilishda avvalo ma'lum dastur bo'yicha amalga oshirishni rejalashtirishi kerak. Ma'lum hujjatlarga asosan, bank kapitalining yetarliligini baholash, ssudalarni tasniflash, ssudalar bo'yicha zararlarni qoplash, tavakkalchilikka va likvidligini aniqlab xulosalar berilishi kerak. Chunki har bir korxon va tashkilot tijorat banklaridan kredit olishdan oldin shu bankni kredit qo'yilmalari yetarliligini va bank zararsiz ishlash qobiliyatiga ega ekanligini auditning xulosasida ko'rishi kerak.

Hozirgi kunda tijorat banklarining ko'payganligi sababli korxon va tashkilotlar raqobatbardosh banklarni tanlamoqdalar. Jalb qilingan auditorlar va audit firmalari Markaziy bank tomonidan banklarda audit o'tkazish uchun malaka sertifikat va listenziyaga ega bo'lishi kerak. Bu listenziya auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun xuquq yaratib beradi. Tijorat banklari o'z faoliyatlarini auditdan o'tkazishda auditorlarni shartnoma asosida ishga qabul qiladi.

Shartnomada bank faoliyatini kompleks yoki ma'lum bir qismini auditdan

<sup>4</sup> <https://api.mf.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

<sup>5</sup> <https://api.mf.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

o'tkazish ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Tijorat bankini moliyaviy xo'jalik faoliyatini kompleks auditdan o'tkazishda qo'yidagi dastur asosida amalga oshiriladi<sup>6</sup>:

1. Listenziya va ta'sis hujjatlarini tekshirish.
2. Bankning asosiy faoliyatini audit qilish.
3. Buxgalteriya hisobi holatini va hisobotlarni tahlil qilish.
4. Soliklarni o'z vaqtida to'lanishini tekshirish.
5. Bankning moliyaviy holatini tekshirish.
6. Bankning hamma moliyaviy xo'jalik faoliyatini iqtisodiy samaradorligini tekshiruv davriga tahlili .
7. Tekshiruv natijalarini auditorlik xulosasiga tayyorlash.

Xorij tajribasidan kelib chiqib, ichki auditorlar mustaqil ravishda kompaniya va firmalar boshqaruv funkstiyasini ekspertlar sifatida baholaydi va o'z faoliyatini ham kengaytiradilar. Ichki audit davlat va xususiy sektor shaklida faoliyat yuritadi.

Ichki auditning vazifasi - ishchilarning o'z vazifalarini imkon qadar malakali va samarali bajarilishiga yordam beradi. Ichki auditor buxgalteriya ma'lumotlari to'g'riligini tekshiradi. Ichki auditorlar rahbariyat oldida hisobot beradi va auditorlar komiteti bilan to'g'ri aloqada bo'ladi.

1992-yil 4-noyabrda 982-sonli O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonida "O'zbekiston Respublikasida banklarni auditorlik tekshiruvi to'g'risida"<sup>7</sup> gi nizom qabul qilindi. 2004-yil 20-aprelda 992- I-sonli "Tijorat banklarining ichki auditiga bank tomonidan qo'yiladigan talablar to'g'risida"<sup>8</sup> gi nizomga asosan barcha banklarda ichki audit xizmati tashkil etiladi.

Tashki audit ichki audit bilan o'zaro aloqadadir. Birinchi o'rinda ichki nazorat faoliyati va tashkilotchiligi baholanadi, bunda ichki auditning ob'ektivlik darajasi, mustaqilligi komponentligi, bajarilgan funkstiyalar hajmiga e'tibor qaratiladi. Auditorlar tekshirilayotgan bankning umumiy faoliyatini o'rganadilar. Ob'ektiv baholash uchun eng birinchi o'rinda aktiv va passiv operastiyalarning

<sup>6</sup> Temirov A.A. Bank auditi. T.: TDIU

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasida banklarni auditorlik tekshiruvi to'g'risida 04.11.1992 Nizomi.

<sup>8</sup> Tijorat banklarining ichki auditiga bank tomonidan qo'yiladigan talablar to'g'risida 20.04.2004 Nizomi

holati ko'rib chiqilishi, buxgalteriya hisoboti to'g'ri ko'rsatilishi, bu operastiyalar qonun talablariga javob berishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3946 "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.07.1996 yildagi PF-1500-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Banklar va bank faoliyati to'g'risida, 25.04.1996 yildagi 216-I-son Qonuni.
4. [Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy sayti https://www.imv.uz/](https://www.imv.uz/)
5. Temirov A.A. Bank auditi. T.: TDIU
6. O'zbekiston Respublikasida banklarni auditorlik tekshiruvi to'g'risida 04.11.1992 Nizomi.
7. Tijorat banklarining ichki auditiga bank tomonidan qo'yiladigan talablar to'g'risida 20.04.2004 Nizomi